

PARALINGVISTIKA FANINING SHAKLLANISHI VA NAZARIY ASOSLARI

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i02.032>

Xasanova Gulrux Xayrullayevna
gulrukhkhasanova88@gmail.com
SamDChTI

Annotatsiya: Ushbu maqolada paralingvistika fanining shakllanishi, nazariy asoslari hamda kommunikativ jarayondagi oʻrni tahlil qilinadi. Tadqiqotda paralingvistik vositalarning lingvistik birliklar bilan oʻzaro munosabati, ularning emotsional va pragmatik maʼno ifodalashdagi roli yoritiladi. Shuningdek, jahon va oʻzbek tilshunosligida paralingvistika boʻyicha ilgari surilgan ilmiy qarashlar qiyosiy jihatdan koʻrib chiqiladi. Natijada paralingvistik hodisalarni tor va keng talqin qilish masalalarining metodologik ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit soʻzlar: paralingvistika, noverbal kommunikatsiya, fonatsion vositalar, prosodiya, intonatsiya, kinesika, nutq jarayoni, kommunikativ faoliyat, pragmatika, lingvistika

THE FORMATION AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF THE SCIENCE OF PARALINGUISTICS

Khasanova Gulrukh Khayrullayevna
gulrukhkhasanova88@gmail.com
SamSIFL

Abstract: This article analyzes the formation, theoretical foundations and role of the science of paralinguistics in the communicative process. The study highlights the interaction of paralinguistic means with linguistic units, their role in expressing emotional and pragmatic meaning. Also, the scientific views on paralinguistics put forward in world and Uzbek linguistics are comparatively considered. As a result, the methodological importance of the issues of narrow and broad interpretation of paralinguistic phenomena is substantiated.

Keywords: paralinguistics, nonverbal communication, phonation means, prosody, intonation, kinesics, speech process, communicative activity, pragmatics, linguistics

KIRISH

XX asrning dastlabki choragidan boshlab insonlararo kommunikatsiya jarayonining murakkab tabiatini har tomonlama o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ortib bordi. Ayniqsa, nutq faoliyatida til vositalari bilan birga, unga hamroh bo'luvchi va ko'pincha uning mazmuniy talqinini kuchaytiruvchi yoki aniqlashtiruvchi nolisoniy (verbal bo'lmagan) elementlar - mimika, jestlar, tana harakatlari, intonatsion ohanglar, pauzalar, tovushning kuchi va tezligi kabi ekspressiv ifoda shakllari alohida e'tibor markaziga chiqdi. Ana shu hodisalarni tizimli ravishda tadqiq etish zaruratidan kelib chiqib, tilshunoslikda yangi ilmiy yo'nalish - paralingvistika shakllana boshladi.

Mazkur atama o'zining ilmiy muomalaga kirib kelishi bilan nutqiy faoliyatning faqat fonetik, leksik yoki grammatik jihatlari bilangina cheklanmasdan, balki uni to'liq va yaxlit kommunikativ hodisa sifatida o'rganishga xizmat qiluvchi metodologik asoslardan biriga aylandi. Paralingvistik vositalar tilshunoslik doirasida inson ekspressiyasining noverbal shakllarini aniqlash, ularning kommunikativ ahamiyatini baholash va nutqning emotsional hamda pragmatik jihatlari tahlil qilish imkonini berdi. Shu tariqa paralingvistika tilshunoslikning interfakultativ (ko'p fanlararo) yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib, nafaqat lingvistika, balki psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va kommunikatsiya nazariyalari bilan uzviy aloqador bo'lib bordi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Paralingvistika tushunchasi ilk bor 1940-yillarning oxirida amerikalik tilshunos A.Xill tomonidan ilmiy atama sifatida taklif etilgan. Biroq paralingvistik hodisalar bilan bog'liq masalalarga ilmiy e'tibor ancha ilgari, 1930-yillarning o'zidayoq sovet tilshunosi N.V.Yushmanov tomonidan qaratilgan. Olim tilshunoslikning o'sha davr uchun nisbatan yangicha va noan'anaviy yo'nalishlariga qiziqish bildirgan holda, bu boradagi ilk ilmiy izlanishlarni amalga oshirgan. Jumladan, uning "Ekstranormal fonetika" nomli asarida til vositalaridan tashqari, inson nutqiga hamroh bo'ladigan ayrim noverbal ifoda shakllari tahlil qilingan. Yushmanov ushbu ishlarida paralingvistikaning alohida ko'rinishlarini - xususan, fonetik tizim doirasiga sig'magan, biroq nutq jarayonida axborot uzatishda ishtirok etuvchi hodisalarni o'rganishga harakat qilgan [9]. Bu esa, u kishi zamonasidan ilgarilab ketgan holda, keyinchalik mustaqil fan sifatida shakllangan paralingvistikaning nazariy ildizlarini barpo etishda muhim qadam tashlaganini ko'rsatadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, paralingvistika termini yuzasidan turli ilmiy qarashlar mavjud bo'lib, bu borada olimlar bir-biridan farqli nuqtayi nazarlarni ilgari surganlar. Jumladan, M.Key (1975) o'zining bibliografik tadqiqotlarida bu atamaning dastlabki bor ishlatilishini 1954-yilga taalluqli qilib, uni Weimers (Uelmers) nomi bilan bog'laydi [5; pp-7-8]. Biroq ilmiy doiralarda kengroq tan olingan yondashuvga

ko'ra, ushbu termin ilk bor 1958-yilda J.Trager tomonidan nazariy jihatdan asoslangan bo'lib, bu sohani fan doirasiga olib kirgan olim sifatida A.Hill tilga olinadi [8;12].

Shu bilan birga, paralingvistik hodisalarni ilmiy o'rganish jarayoni aslida undan avvalgi davrlarga borib taqaladi. Dastlab fonetika sohasida faoliyat yuritgan olimlar og'zaki nutqdagi tovushdan tashqari belgilar, xususan, intonatsiya, pauza, ton, tembr va nutq ritmini kuzatish va tahlil qilish orqali bu vositalarning kommunikativ funksiyalarini aniqlashga harakat qilganlar [1;445]. Ular ushbu belgilarni lingvistik elementlar bilan bir qatorda kommunikatsiyaning ajralmas komponentlari sifatida talqin qilishgan. Shunday qilib, paralingvistik elementlar dastlab ekstralingvistik vositalar doirasida qaralsa-da, keyinchalik alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib borgan.

Shuningdek, J.Treyger o'z maqolasining kirish qismida lingvistika bilan paralingvistikani o'zaro munosabatda tahlil qiladi va 1952-yildan boshlab AQShda o'tkazilgan seminarlar hamda ilmiy munozaralar haqida so'z yuritadi [8;pp-3-4]. Mazkur tadbirlarda ishtirokchilar «paralingvistika» so'zini faol ishlata boshlagan edilar. Tilshunos muloqotni oddiygina so'zlar almashinuvi deb emas, balki murakkab va ko'p qirralik jarayon sifatida tushunadi. Uning fikricha, odamlar o'zaro aloqa qilganda nafaqat so'zlardan, balki tananing harakati, yuz ifodalari va hatto ovoz ohangi orqali ham ko'plab ma'lumotlarni yetkazishadi. Shuning uchun u muloqotni uchta asosiy qatlamga bo'ladi: til (ya'ni, og'zaki nutq), kinesika (tana tiliga oid vositalar), va paratil (ovozning mazmunga bevosita aloqasi bo'lmagan, lekin sezilarli ta'sir ko'rsatadigan xususiyatlari).

Trager paratilni, ya'ni paralingvistik vositalarni juda muhim, deb hisoblaydi. Masalan, biz qanday gapirayotganimiz - ovozimizning tembri, balandligi, ritmi yoki ohangi - ayni so'zlardan ko'ra ko'proq narsani aytib berishi mumkin. Bundan tashqari, kulish, yig'lash, xo'rsinish yoki shivirlash kabi tabiiy tovushlar ham gaplarimizga hissiy kontekst beradi. Shuningdek, u tana harakatlari - ya'ni, qo'l ishoralari, yuz ifodalari va boshqa jismoniy imo-ishoralarni ham aloqa jarayonining ajralmas qismi deb biladi. Trager uchun bu vositalar shunchaki qo'shimcha emas, balki ma'lumot yetkazishda faol ishtirok etadigan vositalardir. Oddiy qilib aytganda, odam muloqot qilayotganda faqat og'zi bilan emas, butun tanasi bilan gapiradi.

MUHOKAMA

Dunyo tilshunosligida paralingvistika va noverbal vositalar bo'yicha qarashlar xilma-xil bo'lib, bu borada mualliflar o'rtasida muayyan tafovutlar mavjud. Jumladan, ko'plab olimlar, xususan, F.Poyatos paralingvistik vositalarni asosan fonetik xususiyatlarga - ovozning tembri, intonatsiya, pauza, ritm kabi akustik ko'rsatkichlarga bog'liq holda baholaydi [6;163]. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, ushbu vositalar og'zaki nutqning mazmunini to'ldiruvchi va emotsional-ekspressiv ma'nolarni ifodalovchi asosiy kommunikativ omillardandir.

F.Poyatos shuningdek, tana harakati, yuz ifodasi, qo‘l-oyoqlarning holati kabi vositalarni esa kinesik vositalar doirasida alohida ilmiy yo‘nalish sifatida ajratib o‘rganadi. U paralingvistik va kinesik vositalarning o‘zaro uyg‘unligi muloqot jarayonida axborot yetkazilishining to‘liqligi va ta’sirchanligini ta’minlashini alohida ta’kidlaydi [6;164]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, insonlar o‘rtasidagi samarali kommunikatsiya faqat lingvistik vositalar orqali emas, balki nolisoniy, paralingvistik va kinesik komponentlarning kompleks qo‘llanilishi orqali amalga oshadi. Tilshunos olim Devid Kristal paralingvistika sohasida olib borgan tadqiqotlarida inson nutqidagi ovoz tonining o‘zgarishlari, intonatsiya va ritm kabi elementlarning semantik mazmunni shakllantirishdagi muhim rolini alohida ta’kidlaydi [2;163]. Uning fikricha, ushbu prosodik xususiyatlar nafaqat nutqning emosional ohangini belgilaydi, balki muloqotning ma’no qatlamlarini aniqlashtirishda ham vosita sifatida xizmat qiladi. Kristal, shuningdek, imo-ishora, tana harakati, yuz ifodasi kabi boshqa neverbal (og‘zaki bo‘lmagan) vositalarning kommunikativ jarayondagi o‘rnini tahlil etar ekan, ularni mustaqil o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi [2;174]. U bu unsurlarni paralingvistik tizimning ajralmas qismi sifatida ko‘rib, ularning tilshunoslik doirasida alohida tadqiq etilishi lozim deb hisoblaydi.

Shu bilan birga, rus tilshunosligida paralingvistika sohasiga oid izlanishlar orasida K.A.Slutskeyaning ishlari alohida e’tiborga molikdir [7;50]. Olim noverbal ifoda vositalarini uch asosiy guruhga ajratadi: fonatsion, kinetik va grafik vositalar. Ushbu tasnif paralingvistik hodisalarni tizimli ravishda o‘rganish imkonini beradi.

1. Fonatsion vositalar - bu nutqning tovushiy tomoniga taalluqli bo‘lib, nutqning temбри, ritmi, tezligi, pauza turlari, intonatsiya va ovoz balandligi kabi elementlarni o‘z ichiga oladi. Slutskeya bu guruhga, shuningdek, fonetik jihatdan talaffuzda ifodalanadigan dialekt, sosialekt va idiolekt kabi sotsiolingvistik birliklarni ham kiritadi. Bu vositalar, odatda, semantik yukni bevosita verbal ifodaga kiritmasdan, emotsional va ekspressiv rang beruvchi ko‘makchi omillar sifatida xizmat qiladi.

2. Kinetik vositalar - tana a’zolarining muloqot chog‘idagi harakatlari, imo-ishoralar (jestlar), yuz ifodalari (mimika) va boshqa vizual vositalarni o‘z ichiga oladi. Slutskeya ularni paralingvistik vositalarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko‘radi. Biroq ayrim tilshunoslar bu nuqtayi nazarga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Ularning fikricha, kinetik vositalar sof paralingvistik emas, balki alohida noverbal kommunikatsiya tizimiga oid bo‘lgan hodisalar sirasiga kiradi. Chunki ular ko‘rish vositasi orqali idrok qilinadigan, ayrim hollarda esa mustaqil semantik yukka ega bo‘lgan birliklardir.

3. Grafik vositalar - yozma muloqotda emotsional-intonatsion ifodani yetkazuvchi vizual belgilar tizimini tashkil etadi. Bu guruhga husnixat, shrift shakllari, tinish belgilarining turli ifodalari, grafik ramzlar va belgilar (masalan, kulgini

ifodalovchi 😊 belgilar yoki ta'kidlovchi !) kiradi. Bu vositalar yozma diskursda o'quvchiga nutqning ohangini va ruhiy holatini yetkazishda yordam beradi.

K.A.Slutskaya tomonidan ilgari surilgan tasnif muhim bo'lishiga qaramasdan, ayrim tadqiqotchilar tomonidan tanqidiy yondashuvlarga sabab bo'lgan. Xususan, mimika va tana harakatlari singari kinetik vositalarni paralingvistika doirasiga kiritish har doim ham asosli, deb hisoblanmaydi. Bu kabi vositalar, ko'pchilik tilshunoslarning fikricha, mustaqil ravishda noverbal kommunikatsiya tizimida alohida tadqiq etilishi lozim [4]. Chunki ular nutq bilan bevosita bog'liq bo'lmagan, balki ko'proq kontekstual va vizual ma'lumot uzatuvchi birliklar sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bois, paralingvistika tushunchasini faqat fonatsion vositalar bilan cheklab, kinetik va grafik vositalarni alohida tahlil qilish zaruriyati yuzaga chiqadi. Bu yondashuv, ayniqsa, tilga yondosh noverbal tizimlarning o'ziga xosligi va murakkabligi nuqtai nazaridan dolzarbdir. Mazkur nuqtai nazardan qaralganda, K.A. Slutskayaning paralingvistik vositalar tasnifiga oid yondashuvida mimika va tana a'zolarining harakati bilan bog'liq birliklarning ushbu tizim doirasida ko'rilishi bahs-munozaralarga sabab bo'lishi mumkin. Tadqiqotlar tahliliga ko'ra, bunday vositalarni paralingvistik tizim tarkibiga kiritish ilmiy-nazariy jihatdan unchalik asosli emas, chunki ular, avvalo, vizual kanallar orqali amalga oshadigan noverbal kommunikatsiya elementlari hisoblanadi.

Aksincha, paralingvistik tizimning ichki tuzilmasini aniqlashda fonatsion va grafik xususiyatga ega bo'lgan vositalar - xususan, prosodik (intonatsiya, tembr, urg'u, pauza va boshqalar) hamda grafik ifoda shakllari (tinish belgilarining kommunikativ funksiyasi, matn tuzilmasi, shrift o'zgarishlari va h.k.) muhim rol o'ynaydi [3]. Bu vositalarning paralingvistik tizim doirasida qaralishi nafaqat mantiqan asosli, balki kommunikatsiya jarayonining lingvistik va ekstralingvistik qatlamlari orasidagi o'zaro aloqadorlikni ko'rsatishda ham ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, prosodik va grafik vositalar, tilshunoslikdagi oraliq (intermediatsion) birliklar sifatida, paralingvistik tizimning ajralmas tarkibiy qismlaridan biri, deb e'tirof etilishi lozim. Ular og'zaki va yozma muloqotda semantik va pragmatik yuklamani boyitib, nutq jarayonining to'laqonli anglashiga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, paralingvistika insonlararo kommunikatsiyaning murakkab va ko'p qatlamli tabiatini chuqurroq anglashga xizmat qiluvchi muhim lingvistik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nutq jarayoni faqatgina verbal birliklar orqali emas, balki ularga hamroh bo'luvchi paralingvistik vositalar - xususan, fonatsion va prosodik elementlar orqali ham to'liq va samarali amalga oshadi. Ushbu vositalar nutqning emotsional-ekspressiv, pragmatik va kontekstual ma'nolarini aniqlashtirib, muloqotning ta'sirchanligini oshiradi.

Shuningdek, paralingvistika sohasida olimlar tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar va tasniflar ushbu fan doirasining hali ham rivojlanish bosqichida ekanini ko'rsatadi. Ayniqsa, paralingvistik hodisalarni tor va keng talqin qilish masalasi ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Tadqiqot tahlili asosida shuni ta'kidlash mumkinki, paralingvistik tizim tarkibiga asosan fonatsion va grafik vositalarni kiritish ilmiy-nazariy jihatdan asosliroq bo'lib, kinetik vositalarni esa mustaqil noverbal kommunikatsiya tizimi doirasida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, paralingvistika tilshunoslikning interfakultativ yo'nalishi sifatida nutqning lingvistik va ekstralingvistik qatlamlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi hamda kommunikativ faoliyatni kompleks yondashuv asosida tadqiq etish imkonini yaratadi. Bu esa mazkur sohaning kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun dolzarb va istiqbolli ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abjalova, M., Khasanova, G., Mardonova, D., & Shodmonaliyeva, Y. (2025). Modification of nonverbal expression in virtual communication environment. Proceedings of the 10th International Conference on Computer Science and Engineering (IEEE-UBMK-2025), 445-450.
2. Crystal, D. (1971). Paralinguistics. In N. Minnis (Ed.), *The Body as a Medium of Expression* (pp. 163-174). London: Gollancz.
3. Khasanova, G. (2023). Dialogue and nonverbal means. International Conference on Multidisciplinary Science, 1(5), 16-18. <https://mjstjournal.com/index.php/icms/article>
4. Khasanova, G. (2024). Origin and development of nonverbal means. *So'z san'ati: International Journal*, 7(3), 125-128. <https://doi.org/10.26739/2181-9297>
5. Key, M. R. (1975). *Paralanguage and kinesics*. Metuchen, NJ: The Scarecrow Press.
6. Poyatos, F. (2002). *Nonverbal communication across disciplines: Paralanguage, kinesics, silence, personal and environmental interaction*. Philadelphia: John Benjamins Publishing Company.
7. Слуцкая К.А Структурно-семиотические аспекты русскоязычной и англоязычной визуальной поэзии. Дисс.канд.филол.наук. - Нижневартовск, 2011. - С. 50.
8. Trager, G. L. (1958). *Paralanguage: A first approximation*. *Studies in Linguistics*, 13, 1-12.
9. Wikipedia contributors. (2025). Paralinguistics. Wikipedia. Retrieved May 21, 2025, from <https://ru.wikipedia.org/wiki/Паралингвистика>.